

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SADULLAYEV TOIR XIKMATILLA O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING INKLYUZIV O‘SISHINI
TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI**

08.00.02 – Makroiqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Sadullayev Toir Xikmatilla o'g'li

O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o'sishini ta'minlash
yo'nalishlari..... 3

Садуллаев Тоир Хикматилла угли

Направления обеспечения инклюзивного роста экономики
Узбекистана..... 25

Sadullaev Toir Khikmatilla ugli

Directions for ensuring inclusive growth of the economy of
Uzbekistan..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SADULLAYEV TOIR XIKMATILLA O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING INKLYUZIV O‘SISHINI
TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI**

08.00.02 – Makroiqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Iqt873 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asqarova Mavluda Turabovna
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Nabiyev Elshod Ganiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tashpulatova Laylo Maratovna
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___»_____ kuni soat___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdu@tdu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdu@tdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

B.D. Xajiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., dotsent

N.M. Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida ro‘y berayotgan miqdor va sifat o‘zgarishlari uyg‘unligiga taraqqiyotning muhim xususiyatlaridan biri sifatida e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Iqtisodiyot rivojlanishining sifat jihatdan taraqqiy etishi uning inklyuziv o‘shiga erishishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning inklyuziv o‘shini ta‘minlash mamlakat aholisining har jihatdan farovonligini o‘zida ifodalab, bunda inson kapitalini rivojlantirish asosiy omillardan birini namoyon etmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, “inson kapitalining bir foizga o‘shishi iqtisodiy o‘sh sur‘atini 0,4 foizga oshiradi”¹. Shuningdek, inklyuziv o‘sh dunyo davlatlarida kambag‘allikni qisqartirish borasida asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida inklyuziv o‘shni ta‘minlash, inklyuziv o‘sh usullarini takomillashtirish, “inklyuziv rivojlanish” borasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish, daromadlarning teng taqsimlanishi hamda inklyuziv o‘shni ta‘minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Inklyuziv o‘shni ta‘minlash borasidagi zamonaviy tendensiyalarni aniqlash, kambag‘allikni qisqartirish yuzasidan innovatsion yondashuv va nostandart usullarni joriy etish, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sarmoyalar, innovatsiyalar, aholi turmush tarzini yuqori darajaga olib chiqish va iqtisodiyotning har bir sohasini qo‘llab-quvvatlash orqali raqobatbardoshlik va biznes faoliyatlarini rag‘batlantirish, iqtisodiy o‘sh davrida iqtisodiy ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlarni jamiyatning har bir bo‘g‘ini tomonidan olinadigan imtiyozlar bilan ta‘minlaydigan jarayonlarni aks ettirish, inklyuziv o‘sh omillarining iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sirini baholash, aholi daromadlaridagi notekis taqsimotni inklyuziv rivojlanishdagi ahamiyatini tadqiq etish, mamlakatda inklyuziv o‘shni ta‘minlashda “yashil iqtisodiyot” imkoniyatlaridan foydalanish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda “inson qadrini ulug‘lash” tamoyili asosida iqtisodiyotni barqaror sur‘atlarda rivojlantirib borish ustuvor vazifa sifatida belgilanib, bu borada YaIMning aholi jon boshiga ulushini oshirish, inson kapitaliga sarmoyalarning samaradorlinini ta‘minlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatda “...iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish, chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o‘shning poydevorini yaratish, strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘sh hisobiga erishish”² muhim vazifa etib belgilangan. Mazkur vazifalarning ijrosini ta‘minlashda iqtisodiyotni inklyuziv o‘shini ta‘minlash yo‘nalishlarini ishlab chiqish, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, inklyuziv

¹ Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tadqiqot natijalari asosida. Manba: <http://www.uzdaily.uz/uz/post/7799>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-yil. Internet manzil: <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

rivojlanish borasida maqsadli ko'rsaktichlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida", 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son "Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 18-maydagi PQ-246-son "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktabrdagi 606-son "Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 21-fevraldagi 83-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar tizimini tadqiq qilish jarayoni bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishning sifat jihatlarini o'rganishga A.Smit, D.Rikardo, J.Mill, J.Shumpeter kabi iqtisodchilarning asarlarida juda katta e'tibor berilgan. Turli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sifatining turli nazariy va amaliy jihatlarini faol o'rgangan xorijiy tadqiqotchilar orasida M.Abramovis, R.Barro, J.Vang, C.Grilixes, M.Daylami, D.Jorgenson, A.Dhareshvar, D.Kaufman, J.Kendrik, R.Levin, R.Lores, M.Mlachila, R.Ranieri, D.Rodrik kabilarning ilmiy tadqiqotlari ahamiyatlidir.

Inklyuziv o'sish jarayonlarini o'rganish bilan bog'liq masalalar rossiyalik tadqiqotchi-iqtisodchilarning asarlarida yoritilgan. Ular orasida A.Levinkov, S.Yu.Glazev, O.A.Kasuk, I.A.Kirshin, I.T.Korogodin, T.D.Romashchenko, Ye.G.Russkov, I.M.Tenyakova, M.N.Uzyakova, K.A.Khubiyeva, L.G.Cherednichenko va boshqa olimlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shish masalalari iqtisodchi olimlardan S.V.Chepel, A.K.Bedrinsev, A.V.Vahobov, N.F.Mo‘minov, G.K.Saidova va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, inklyuziv o‘shish omillari va uning umumnazariy jihatlarini S.V.Chepel, A.V.Vahobov, N.F.Mo‘minov, B.B.Berkinov, U.Madramimov, B.B.Valiyev, A.S.Usmanov, Sh.Xamdamiyov, K.X.Abduraxmonov, U.V.Gafurov, A.F.Rasulev, A.M.Qodirov, N.M.Maxmudov, Yu.Muxammedov, I.Qayumova va T.Shodiyevlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan³.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida iqtisodiyotning inklyuziv o‘shishini ta‘minlash, bu borada institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, inklyuziv o‘shishni ta‘minlovchi asosiy omillarni tadqiq etishga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. O‘z navbatida, O‘zbekistonda inklyuziv o‘shishning dolzarbligi, mazkur masalaning kompleks jihatdan yetarlicha ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilmaganligini mazkur ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot mavzusining Dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ATD-2 “O‘zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning konseptual asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi davlat amaliy-ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotning inklyuziv o‘shishini ta‘minlash yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiya hamda takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiyotning inklyuziv o‘shishini ta‘minlashga oid ilmiy-nazariy asoslarni tadqiq etish;

inklyuziv o‘shishni ta‘minlash bo‘yicha iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini baholashning zamonaviy yondashuvlarini tadqiq etish;

³ Abdurahmonov Q. O‘zbekistonda inson omili va manfaatlarini – eng oliy qadriyat. -T.: “G‘afur G‘ulom” NMIU, 2017. - 364 b; O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot. Mualliflar jamoasi: R.Alimov, A.Rasulev, A.Qodirov va boshq. /S.S.G‘ulomov taxriri ostida., 2006, - 440 b; Karimov N. Iqtisodiy integrallashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. - T., 2007. - 214 b; Maxmudov N. Iqtisodiy o‘shish modellari va ulardan makroiqtisodiy tahlilda foydalanish yo‘llari. //Iqtisod va moliya. 2016, №3. 2-8 b; Maxmudov N.M. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda pul-kredit siyosatining rolini oshirish yo‘llari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: TDIU. 2015, 23-29 b; Muxammedov Yu. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishning omillari va ekonometrik modellari (O‘zbekiston Respublikasi misolida). Iqt.fan.dok... dis. -T.: TDIU, 2006. -504 b.; Abulqosimov X., Berkinov B. Davlatning makroiqtisodiy siyosati. -T.: Akademiya, 2007. -198 b; Vaxobov A., Zaynitdinova U. Barqaror iqtisodiy o‘shish omillari. -T.: //Bozor, pul va kredit. 6/2011. 38-42 b; Vaxobov A. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning metodologik jihatlarini. “O‘zbekiston iqtisodiyotini institutsional rivojlantirish: yutuqlar, muammolar, yechimlar” nomli anjuman materiallari. -T.: TDIU, 2016-yil 12-mart; Влияние экономического роста на сокращение доли малообеспеченного населения Узбекистана. Колл. авт. под ред. Чепел С. - T., 2012; Kayumova I. O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichi jarayonlarining ekonometrik tadqiqoti. Iqt. fan. dok. ... dis. -T., 2012. - 289 b; Shodiyev T. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, intellektuallashtirish va diversifikatsiyalash asosida iqtisodiy o‘shish sifatini oshirish. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. -T., 2011, № 1.

iqtisodiyotning inklyuziv o'sishini ta'minlash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini tadqiq etish va ularni qo'llash imkoniyatlari yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

inklyuziv o'sishning O'zbekiston iqtisodiyotidagi amaldagi holatini tahlil etish;

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va kambag'allikni qisqartirish tendensiyalarini tahlil qilish;

O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o'sishini ta'minlash yo'nalishlarini aniqlash;

O'zbekiston iqtisodiyoti inklyuziv o'sishini ta'minlashda zamonaviy "yashil iqtisodiyot" omilidan samarali foydalanish istiqbollari qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o'sish jarayonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti iqtisodiyotning inklyuziv o'sishini takomillashtirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ilmiy sharhlash, nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish va abstraksiyalash, statistik ma'lumotlarga dasturiy ta'minot orqali ishlov berish, kuzatish, tizimlashtirish, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra real YaIM va aholi moddiy daromadlarining barqaror o'sish sur'atlari bilan cheklangan "inklyuziv o'sish" tushunchasi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining sifat jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan, aholining turmush sharoitlarini oshirish orqali tabaqalashuvining oldini olish hamda hayot darajasiga tashqi samaralarning ta'sirini baholash imkonini beruvchi mazmuniga ko'ra takomillashtirilgan;

inklyuziv o'sish tavsifini ta'minlovchi muhim shartlardan biri sifatida iqtisodiyotda samarali va barqaror ish o'rinlarini yaratish asosida unumli bandlikning maqbul darajasini ta'minlash taklifi ilmiy asoslangan;

samarali bandlikni oshirish ($B_S=67\% \rightarrow 70\%$) hamda aholi daromadlari tengsizligi ($T_{AD}=3,3\% \rightarrow 2,8\%$) va kambag'allik darajasini ($D_K=17\% \rightarrow 15,5\%$) qisqartirish orqali inklyuziv o'sish tavsifi va maqbul darajasini ta'minlash taklifi asoslangan;

O'zbekistonda inklyuziv rivojlanish indeksini hisoblash modeli asosida iqtisodiy rivojlanishning 2025-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

"inklyuziv o'sish" tushunchasiga muallif ta'rifi berilgan hamda iqtisodiyotning inklyuziv o'sish darajasini aniqlashda real YaIM va aholi moddiy daromadlaridan tashqari boshqa ko'rsatkichlardan ham foydalanish taklifi ishlab chiqilgan;

aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va boshqa bir qator qiyosiy mezonlar bo'yicha bandlikning o'sishi va mehnat unumdorligi bilan YaIMning yuqori va barqaror o'sish sur'atlari uyg'unlashgan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish holati tahlil etilgan;

inklyuziv o‘shishni samarali bandlikni oshirish, aholi daromadlari tengsizligi va kambag‘allik darajasini qisqartirish, inson kapitalidan samarali foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlash darajasini aniqlash orqali baholash taklifi ishlab chiqilgan;

inklyuziv rivojlanish indeksini hisoblash modeli hamda iqtisodiy rivojlanishning 2025-yilga bo‘lgan hisoblangan prognoz parametrlari aholini mehnat bilan bandligi darajasini oshirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tkazilganligi, olingan natijalarning vakolati davlat tuzilmalari tomonidan ma‘qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati iqtisodiyotning inklyuziv o‘shishiga kuchli ta‘sir etuvchi soha va tarmoqlarni, omillar va manbalarni aniqlash asosida uning sifatini oshirishga, jadal iqtisodiy o‘shishni oshirish asosida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va resurslarni oqilona taqsimlash orqali tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga hamda jadal iqtisodiy o‘shishni oshirishning konseptual asoslari, baholash mezonlari, usullari hamda ekonometrik modellarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iqtisodiyotning inklyuziv o‘shishining aniqlangan omil hamda manbalarini o‘ziga xos jihatlari asosida jadal iqtisodiy o‘shishni oshirish istiqbollari, strategik omillarini hamda ustuvor vazifalarini aniqlashda va ishlab chiqilgan xulosalardan oliy o‘quv yurtlarida o‘quv adabiyotlarini o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotning inklyuziv o‘shishini ta‘minlash yo‘nalishlari yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra real YaIM va aholi moddiy daromadlarining barqaror o‘shish sur‘atlari bilan cheklangan holatdan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining sifat jihatlari o‘zida mujassamlashtirgan, aholining turmush sharoitlarini oshirish orqali tabaqalashuvining oldini olish hamda hayot darajasiga tashqi samaralarning ta‘sirini baholash imkonini beruvchi mazmuniga ko‘ra takomillashtirilgan “inklyuziv o‘shish“ tushunchasi oliy ta‘lim muassasalari talablari uchun “Inklyuziv iqtisodiy o‘shish“ nomli darslik tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida bo‘lajak mutaxassislarda inklyuziv o‘shishning zamonaviy tushunchasi hamda uni aniqlash metodi bo‘yicha nazariy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

inklyuziv o‘shish tavsifini ta‘minlovchi muhim shartlardan biri sifatida iqtisodiyotda samarali va barqaror ish o‘rinlarini yaratish asosida unumli bandlikning maqbul darajasini ta‘minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan “Inklyuziv o‘shish shartlariga

muvofig bandlikni ta'minlash chora-tadbirlari dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yil 7-yanvardagi 01/00-02/07-114-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va boshqa bir qator qiyosiy mezonlar bo'yicha O'zbekiston bilan taqqoslanadigan bir qator mamlakatlar uchun so'nggi 20 yil davomida jahon statistikasidan foydalangan holda ular orasida bandlikning o'sishi va mehnat unumdorligi bilan YaIMning yuqori va barqaror o'sish sur'atlari uyg'unligini ta'minlash imkoni yaratilgan;

samarali bandlikni oshirish ($B_S = 67\% \rightarrow 70\%$), aholi daromadlari tengsizligi ($T_{AD} = 3,3\% \rightarrow 2,8\%$) va kambag'allik darajasini ($D_K = 17\% \rightarrow 15,5\%$) qisqartirish orqali inklyuziv o'sish tavsifi va maqbul darajasini ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan "Inklyuziv o'sish shartlariga muvofiq bandlikni ta'minlash chora-tadbirlari dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yil 7-yanvardagi 01/00-02/07-114-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida samarali bandlikni oshirish, aholi daromadlari tengsizligi va kambag'allik darajasini qisqartirish orqali inklyuziv o'sish tavsifi va maqbul darajasini ta'minlash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda inklyuziv rivojlanish indeksini hisoblash modeli asosida iqtisodiy rivojlanishning 2025-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan "Aholini mehnat bilan bandligi darajasini oshirish strategiyasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yil 7-yanvardagi 01/00-02/07-114-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatda o'rta muddatli istiqbolda inklyuziv rivojlanish ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining asosiy mazmuni bo'yicha umumiy hajmi 14 ta ilmiy ish, shundan 1 ta monografiya, 6 ta mahalliy jurnallarda, 2 ta xalqaro jurnallarda maqola, 6 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan. Uning hajmi 145 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib

berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar aks ettirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Iqtisodiyotni inklyuziv o'sishini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida inklyuziv o'sishning ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan va keng yoritilgan. “Inklyuziv o'sish”ning mazmun-mohiyati va ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishini baholashning uslubiy yondashuvlari hamda inklyuziv o'sishini ta'minlashning xorijiy davlatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati kabilar yoritilgan.

Iqtisodiyotning inklyuziv o'sishini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari, birinchi navbatda, “inklyuziv o'sish” tushunchasining mazmun-mohiyatini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bu borada, Jahon banki tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda dastlab “iqtisodiy o'sish sifati” tushunchasi qo'llanilgan, so'nggi o'n yillikda olib borilgan ilmiy izlanishlarda iqtisodiy o'sish sifatini ijtimoiy masalalar bilan uyg'unlikda talqin etuvchi “inklyuziv o'sish” tushunchasiga ko'proq ahamiyat berilayotganligi kuzatiladi.

Iqtisodiy o'sish va uning inklyuziv jihatlari bilan bog'liq qator izlanishlar xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan⁴. Jumladan, iqtisodiy o'sishning ijtimoiy natijalarini oshirish, inklyuziv o'sish kabi barqaror o'sish sifatining mezonlarini tadqiq etish bilan bog'liq ishlar M.Spence va R.Solow⁵ iqtisodiy o'sish va mehnat unumdorligining o'zgarishini barqaror o'sish sifatiga ta'siri E.Korso⁶, institutsional birliklarning iqtisodiy o'sish sifatini inklyuziv jihatlari ta'siri K.Sen⁷, inklyuziv o'sish ko'rsatkichlari va ularni baholash bo'yicha uslubiy yondashuvlar P.Vellala, M.Madala, U.Chhattopadhyay⁸, ishsizlikni kamaytirish, savdoni rivojlantirish va mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan makroiqtisodiy siyosat asosida barqaror o'sish sifatini oshirish C.Aoyagi, G.Ganelli⁹ tadqiqotlarida o'rganilgan.

Jahon banki mutaxassislarining fikriga ko'ra, “... inklyuziv o'sish – odamlarning iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi va undan foyda olishiga imkon beradigan o'sish”¹⁰. Osiyo taraqqiyot banki mutaxassislari inklyuziv o'sishni “... nafaqat yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratibgina qolmay, balki jamiyatning barcha tarmoqlari, ayniqsa kambag'allar uchun imkoniyatlardan teng foydalanish imkoniyatini beradigan o'sish” deb ta'riflaydi¹¹.

⁴ Anand R., Mishra S., and Peiris S. Inclusive Growth: Measurement and Determinants. 2013, International Monetary Fund.

⁵<http://siteresources.worldbank.org>

⁶ Korso E. Inclusive growth analysis and HRV: a methodological note. 2011.


⁷ Sen K. Inclusive Growth: When May We Expect It? When May We Not? https://openaccess.adb.org/bitstream/handle/11540/4104/Volume%2031_No%201_2014_05.pdf?sequence=1;

⁸ Vellala P., Madala M., Chhattopadhyay U. A Theoretical Model for Inclusive Economic Growth in Indian Context. http://www.ijhssnet.com/journals/Vol_4_No_13_November_2014/27.pdf;

⁹ Aoyagi C., Ganelli G. Asia's Quest for Inclusive Growth Revisited. 2015, International Monetary Fund <https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2015/wp1542.pdf>;

¹⁰ Ianchovichina E., and Lundstrom S., “Inclusive Growth Analytics: Framework and Application”, World Bank Policy Research Working Paper, No. 4851.

¹¹ Ali I. and Hwa Son H. (2007). Measuring inclusive growth, Asian Development Review, Vol. 24, №1, pp.11- 31.



1-rasm. “Inklyuziv o‘sh”ning asosiy xususiyatlari¹²

“Inklyuziv o‘sh” atamasi so‘nggi o‘n yillikda iqtisodiyotni taraqqiy ettirish muhokamasida katta mavqega ega bo‘ldi. Bu atama o‘rnida “umumiy o‘sh” (shared growth), “kambag‘allikka mo‘ljallangan o‘sh” (pro-poor growth), “haqqoniy o‘sh” (equitable growth) va boshqa tushunchalar ishlatiladi. “Inklyuzivlik” so‘zi deyilganda aholining turli guruhlari o‘rtasidagi iqtisodiy o‘shdan olinadigan foydani teng taqsimlash tushuniladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asosan, tadqiqotda inklyuziv o‘sh xususida muallif talqinlari tavsiya etildi. “Inklyuziv o‘sh” – mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining sifat jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan tushuncha hisoblanib, muayyan mamlakat aholisining turmush sharoitlarini oshirish orqali, ularning tabaqalanishi bilan kurashish hamda tashqi samaralarning ular hayot darajasiga ta’sirini baholash imkonini beradi.

Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e’lon qilinib boruvchi Inklyuziv rivojlanish indeksi (Inclusive Development Index – IDI) bo‘yicha reyting natijalarini ko‘rish mumkin. Mazkur reytingda rivojlangan iqtisodiyotlarga ega davlatlardan Norvegiya, Luksemburg, Shveysariya, Islandiya, Daniya, Shvetsiya, Niderlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Avstriya kabi TOP reytingdan o‘rin olgan.

¹² Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

**“Inklyuziv o‘shish” tushunchasi borasida bildirilgan ilmiy-nazariy qarashlar,
fikir-mulohazalar¹³**

Ilmiy tadqiqot natijalari mualliflari	Bildirilgan fikr va mulohazalar
Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi	Inklyuziv iqtisodiy o‘shish hayot sifatini yaxshilash va mamlakat aholisining barcha guruhlari uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan birga namoyon bo‘luvchi iqtisodiy o‘shish hisoblanadi
Burganov R.T., Yelshin L.A., Sharapov A.R.	Inklyuziv iqtisodiy o‘shish mamlakatlardagi mavjud mehnat resurslarining samarali taqsimotini o‘zida mujassam etuvchi, ko‘p tomonlama rivojlanish omillarini hisobga olgan umumiy tushunchadir
A.Levenkov	Inklyuziv o‘shish mamlakatda iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarining aholi jon boshiga taqsimot qilinganda, ularning har biri borasidagi umumiy ehtiyojlarini ta‘minlovchi iqtisodiyotning muhim o‘lchovi
M.Spence va R.Solow	Iqtisodiy o‘shish modelining sifat bosqichiga chiqishi inklyuziv o‘shish hisoblanadi. Inklyuziv o‘shish omillarining eng muhimlaridan biri – inson kapitalining rivojlantirilganligidir
T.Ishmetov	Gap faqat o‘shish haqida emas, balki inklyuziv o‘shish haqida, ya‘ni bunda ko‘proq odam foyda olishi mumkin. Shu bois, unumdorlik, samaradorlikni oshirish va raqobat muhitini yaratish, inson kapitaliga sarmoya kiritish, ya‘ni yoshlar haqiqatda biznes talablariga javob beradigan asosiy ko‘nikmalarni egallashiga ishonch hosil qilish zarur. Agar oldingi iqtisodiy siyosat va statistik ma‘lumotlarga nazar tashlasangiz, juda yaxshi o‘shish davri yuz berdi. Buni hech kim inkor eta olmaydi. Deyarli o‘n yil davomida yiliga 6-7 % darajasida (YaIM) o‘shish kuzatildi. Bu juda yaxshi, biroq bu o‘shish inklyuziv bo‘lmadi, shuning uchun bu aholining juda kichik qismini xursand qila oldi (https://www.gazeta.uz/uz/2021/10/29/inclusive-growth/)
Usmanov A., Xamdamov Sh.	Jahon banki, Osiyo taraqqiyoti banki, Yevropa tiklanish banki, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarning global innovatsion, inklyuziv o‘shish ko‘rsatkichlari hisobi yuritiladi. Bundan ko‘zlangan birinchi maqsad xorijiy investorlar uchun mamlakatdagi imkoniyatlar va risklarni baholash bo‘lsa, ikkinchi sabab mintaqadagi muammolarni aniqlab, xalqaro jamg‘armalar orqali ushbu muammoning yechimi uchun loyihalar ishlab chiqib pul yo‘naltirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashdan iborat

Shuningdek, so‘nggi 5 yillikda inklyuziv o‘shishni qayd etib borayotgan rivojlangan iqtisodiyotlarga ega davlatlarga Islandiya, Yangi Zelandiya, Isroil, Irlandiya, Germaniya, Norvegiya, Shveysariya, Janubiy Koreya, Daniya, Chexiya kabi davlatlar kiritilgan. Yuqoridagi reyting ko‘rsatkichlarini davlatlar iqtisodiyotidagi ahamiyatini kengroq ko‘rib chiqish uchun bu boradagi ayrim ko‘rsatkichlarni keltirish mumkin.

¹³ Muallif tomonidan manbalar asosida to‘plangan.

2-jadval

Inklyuziv o‘shish indeksi bo‘yicha yetakchi davlatlardagi YaIM hajmining aholi jon boshiga nisbatan taqsimoti¹⁴


Mamlakatlar nomi	Yillar va YaIM hajmining aholi jon boshiga nisbatan taqsimoti, AQSh dollarida										Reyting
	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	
Avstraliya	68027,8	68156,6	62511,7	56707	49881,8	53934,3	57180,8	54875,3	51680,3	59934,1	7
Avstriya	48564,9	50731,1	51786,4	44195,8	45307,6	47429,2	51486,6	50114,4	48588,7	53267,9	10
Ozarbayjon	7496,3	7875,8	7891,3	5500,3	3880,7	4147,1	4739,8	4805,8	4229,9	5384,0	9
Daniya	58507,5	61191,2	62549	53254,9	54664	57610,1	61591,9	59775,7	61063,3	67803,0	5
Islandiya	45995,5	49805	54576,7	52951,7	61987,9	72010,1	74469,8	68941,5	59264	68383,8	4
Isroil	32667,6	36499,5	37847,6	35808,4	37330,3	40774,1	42063,5	43951,2	44177,6	51430,1	11
Luksemburg	112584,7	120000,1	123678,7	105462	106899,3	110193,2	117254,7	113218,7	116356,2	135682,8	1
Niderlandiya	50070,1	52198,9	52900,5	45193,4	46039,1	48675,2	53044,5	52476,3	52396	58061,0	8
Norvegiya	101524,1	102913,5	97019,2	74355,5	70460,6	75496,8	82267,8	75719,8	67329,7	89202,8	3
Yangi Zelandiya	39973,4	42976,6	44572,9	38630,7	40058,2	42925	43250,4	42865,2	41596,5	48801,7	12
Shvetsiya	58037,8	61126,9	60020,4	51545,5	51965,2	53791,5	54589,1	51939,4	52300,2	60239	6
Shveysariya	86547,7	88109,5	89684,7	84776,1	83073,3	83352,1	86388,4	85334,5	87100,4	93457,4	2
Jami:	709997,4	741584,7	745039,1	648381,3	651548	690338,7	728327,3	704017,8	686082,8	791647,6	
Yillik o‘zgarishi	-	104,4	100,5	87	100,5	106	105,5	96,7	97,5	115,4	
Bazis yilga (2012-yil) nisbatan o‘zgarishi	-	104,4	104,9	91,3	91,8	97,2	102,6	99,2	96,6	111,5	

2-jadvalga ko‘ra, 2021-yilda YaIMning aholi jon boshiga taqsimoti bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Luksemburg davlatida qayd etilib, unga ko‘ra mamlakat aholisiga nisbatan YaIMning taqsimoti 135 682,8 AQSh dollariga teng bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkich mazkur davlatda 2012-yilda 112 584,7 AQSh dollarini tashkil etgan edi. O‘tgan davr mobaynida ushbu ko‘rsatkich 120,5 foizga ortganligi inklyuziv o‘shishning mamlakatda ijobiy jihatlarini qayd etadi. Inklyuziv rivojlanish indeksi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning umumiy qabul qilingan yangi tizimi sifatida axborot mazmuni bo‘yicha boshqalardan ustun turadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o‘shishini ta‘minlashdagi zamonaviy tendensiyalar tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida inklyuziv rivojlanish bo‘yicha jahon mamlakatlarining tutgan o‘rni va bu mamlakatlar tajribasini O‘zbekiston iqtisodiyotiga joriy etish holati tahlil qilingan. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari iqtisodiy jihatdan baholangan. Inklyuziv o‘shishni ta‘minlashning ijtimoiy jihatlari tahlili asosida inson kapitalini rivojlantirishning holati qiyosiy tahlil etilgan.

Tadqiqotda O‘zbekistonning inklyuziv rivojlanishini tahlil etishda dastlab iqtisodiy ko‘rsatkichlar orasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan YaIMning o‘shishi hamda uning aholi jon boshiga taqsimoti tahlil etilgan.

¹⁴ Jahon Bankining ma’lumotlari. Manba: <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.PCAP.CD?view=chart>



2-rasm. O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining o‘shish ko‘rsatkichi¹⁵ (mlrd. so‘m)

2012–2021-yillardagi O‘zbekistonda YaIMning hajmi o‘shish tendensiyasini qayd etganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, 2012-yilda mamlakatning YaIM hajmi joriy narxlarda hisoblanganda 127590,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkich 5 yillik davrdan so‘ng, ya‘ni 2016-yilda 206 foizga yoki 2 barobardan ortiqqa o‘shib, real hajmda 255 421,9 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

E‘tiborlisi, 2016-yildan keyin “iqtisodiyotda ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘shishini, inflyatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta‘minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi¹⁶” hamda mazkur islohotlar natijasida YaIMning real hajmda o‘shish kutilganidan ko‘ra yuqoriga o‘shish tendensiyasi qayd etilgan.

Jumladan, 2017-yilda YaIM hajmi mamlakatimizda 317 476,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, so‘nggi besh yilda, ya‘ni 2021-yilda mazkur makroiqtisodiy ko‘rsatkich 734 587,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Tahlillar asosida ta‘kidlash mumkinki, so‘nggi besh yil davomida, ya‘ni 2021-yilda YaIMning hajmi 2017-yilga nisbatan 231,3 foizga, boshqacha aytganda 2,3 barobarga oshganligi inklyuziv o‘shishni ta‘minlashdagi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘ldi.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan. Manba: <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonidan. Manba: <https://lex.uz/docs/3107036#3109146>

3-jadval

O‘zbekistonda aholi soni va YaIM hajmining aholi jon boshiga nisbatan taqsimoti to‘g‘risida ma‘lumot¹⁷

Yillar	Aholi soni, ming kishi	Aholi sonining o‘shish sur‘atlari			YaIMning aholi jon boshiga taqsimoti, mln. so‘mda	YaIMning aholi jon boshiga taqsimoti o‘shish sur‘atlari		
		real sonlarda	yildan yilga, %	bazis yilga nisbatan, %		real sonlarda	yildan yilga, %	bazis yilga nisbatan, %
2012	29555,4	<i>hisob yili</i>	<i>hisob yili</i>	<i>bazis yil</i>	4,317	<i>hisob yili</i>	<i>hisob yili</i>	<i>bazis yil</i>
2013	29993,5	438,1	111,5	1,5	5,111	0,794	118,4	118,4
2014	30492,8	499,3	111,7	3,2	6,127	1,016	119,9	141,9
2015	31022,5	529,7	111,7	5,0	7,135	1,008	116,5	165,3
2016	31575,3	552,8	111,8	6,8	8,089	0,954	113,4	187,4
2017	32120,5	545,2	111,7	8,7	9,884	1,795	122,2	129,0
2018	32656,7	536,2	111,7	10,5	13,006	3,122	131,6	130,1
2019	33255,5	598,8	111,8	12,5	15,919	2,913	122,4	136,8
2020	33905,2	649,7	112,0	14,7	17,761	1,842	111,6	141,4
2021	34558,9	653,7	111,9	16,9	21,256	3,495	119,7	149,4


3-jadval ma‘lumotlarida O‘zbekistonda aholi soni va YaIM hajmining aholi jon boshiga nisbatan taqsimoti aks ettirilgan. Unga ko‘ra, 2012-yilda aholi soni 29 mln. 555 ming nafardan ortiq bo‘lgan. Mamlakatimizda aholining doimiy o‘shish sur‘atlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘tgan 10 yil davomida o‘rtacha 1,5 foizdan ko‘proq o‘shish kuzatilgan yoki har yili o‘rtacha doimiy aholi soni 500,35 ming nafardan oshib borgan. Bazis yilga nisbatan aholi sonining o‘shishi 2018 yildan keyin faol tarzda ortgan. Ya‘ni 2018-yilda bazis yilga nisbatan aholi soni 10,5 foizga, 2019-yilda 12,5 foizga, 2020-yilda 14,7 foizga, 2021-yilda deyarli 17 foizga o‘sganligini tahlillarda ko‘rish mumkin. Inklyuziv o‘shish ko‘rsatkichlaridan hisoblangan – YaIMning aholi jon boshiga nisbatan taqsimoti borasida 2012-yilda ushbu ko‘rsatkich 5,111 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda 21,256 ming so‘mni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, o‘tgan 10 yil davomida YaIMning aholi jon boshiga nisbatan taqsimoti bazis yilga nisbatan 2021-yilda 49,4 foizga yoki real hajmda 16,939 ming so‘mga ortgan. Aytish kerakki, bazis yilga nisbatan va real hajmda ham YaIMning aholi jon boshiga pandemiya davrida ham muntazam o‘shib borganligi (2019-yilda 15,919 ming so‘m, 2020-yilda 17,761 ming so‘m, 2021-yilda 21256 ming so‘m) mamlakatimizda aholi farovonlik darajasi borasida inklyuziv o‘shish sur‘atlari qoniqarlidir.

Inklyuziv o‘shishda hisobga olinadigan asosiy jihatlardan kam ta‘minlangan aholi va kambag‘allik darajasi hisoblanadi. 2012-yilda mamlakatimizda 15,0 foiz aholi kam ta‘minlangan aholi hisoblangan bo‘lsa, yillar davomida mazkur

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan. Manba: <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>

ko‘rsatkich qisqarib borgan. Ya’ni ushbu ko‘rsatkich 2021-yilga kelib 2012-yilga nisbatan 3,7 foizga qisqarib, 11,3 foizni tashkil etgan. Albatta, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, shu jumladan, kam ta’minlangan aholini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangicha mexanizmda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan “mahallabay” ishlash tizimi orqali umumiy aholi sonida kam ta’minlanganlarning ulushini qisqartirib, ularning farovonligini, pirovardida inklyuziv o‘shishga erishish rag‘batlantirilmoqda.

Yuqoridagi tahlillarning davomi sifatida, iqtisodiyotning inklyuziv o‘shishini tahlil etishda muhim xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ko‘rsatkichlardan biri – “Gini” koeffitsiyenti (Gini index, Gini coefficient) hisoblanadi. “Gini” koeffitsiyenti (Gini index, Gini coefficient) aholi orasida daromadlar taqsimotini o‘lchash uchun qo‘llaniladi va 0 (mutlaq tenglik)dan 1 (mutlaq tengsizlik)gacha oraliqdagi son bilan ifodalanadi.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarining notekis taqsimlanishi¹⁸

3-rasmga ko‘ra, 2017-yildan boshlab qaytadan rasmiy ravishda e’lon qilina boshlagan “Gini” koeffitsiyentida 2020-yilgacha hech qanday o‘zgarishlar bo‘lmagan, ya’ni mazkur koeffitsiyent 0,26 darajani qayd etgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, mazkur koeffitsiyentning 1 ga yaqinlashishi tengsizlikning yuqori darajasini hamda 0 ga yaqin kelishi tengsizlikning past darajasini ifodalaydi. 2020-yilgi pandemiya mamlakatimizda tengsizlik darajasining oshishiga olib kelgan (yoki tengsizlikning o‘sayotganligi statistikada yaqqol ko‘zga tashlana boshlagan). Shuningdek, 2021-yildan keyingi davrda “Gini” koeffitsiyenti pasayib borayotganligini kuzatish mumkin.

Inklyuziv o‘shish ijtimoiy barqarorlik bilan birga ekologik barqarorlikni ta’minlovchi omillar samaradorligini ham o‘z ichiga oladi. Inklyuziv o‘shishning ko‘p omilli ekanligini inobatga olib, ushbu omillarning soha va tarmoqlar kesimida natijaviy jihatlarni kompleks tarzda tadqiq etish lozim.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

4-jadval

Inklyuziv o‘shish omillari¹⁹

Ko‘rsatkichlar	Mamlakatlar bo‘yicha o‘rtacha	O‘zbekiston Respublikasi	Mamlakatlar bo‘yicha o‘rtacha va O‘zbekiston nisbati (martaga)
Tadqiqot va rivojlanish xarajatlarining (R&D) YaIMdagi ulushi	2,4	0,2	11,8
Inson taraqqiyoti indeksi (HDI 1=themost developed)	0,915	0,701	1,305
Energo samaradorlik (Energiya iste‘moli birligi uchun YaIM; AQSh dollari)	11,47	3,57	3,21
Davlatning samaradorligi (0 dan +5 gacha)	4,2	1,9	2,2
Inklyuziv o‘shish indeksi	5,1	3,93	1,29
Amaldagi qonunlarga amal qilish indeksi RoL (0 dan +5gacha)	4,21	1,37	3,07
Korrupsiyani nazorat qilish indeksi (0-100, 100 — korrupsiyaning yo‘qligi)	79,3	21	3,8

O‘zbekistonda inklyuziv rivojlanish shartlari va omillari ko‘rsatkichlarini jahon mezonlari bilan taqqoslash (4-jadvalga qarang) quyidagicha xulosa qilishga imkon beradi: inklyuziv iqtisodiyotga o‘tishga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillar institutlarning rivojlanmaganligi va respublikada ilm-fan va yangi texnologiyalarni yetarli darajada moliyalashtirmaganligi hisoblanadi²⁰. Tadqiqot natijalari asosida tanlangan omillarning ta’siri ekonometrik model asosida baholandi.

5-jadval

Ekonometrik tahlil natijalari²¹

Bog‘liq o‘zgaruvchi		Koeffitsiyent	Parametrlar	
			Kuzatuvlar soni	132
GDP				
<i>Omillar:</i>				
Emp	x ₁	14836,53	F(3, 18)	1702,45
Unemp	x ₂	-3775,964	Prob > F	0.000
LR	x ₃	17,71462	R-koeffitsient	0.9981
LEAP	x ₄	10084,03	Adj R-koeffitsient	0.9975
TPCIR	x ₅	53,93909		
_cons		559156		

Tahlil natijalari asosida quyidagi regressiya tenglamasidan iborat model tuzildi:

$$y (GDP) = 14836,53 Emp - 775,9 Unemp + 17,7 LR + 10084,03 LEAP + 53,9 TPCIR + 559156$$

¹⁹ Jahon banki va O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

²⁰ Hamdamov Sh. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari tahlili. Hududlarni rivojlantirishni strategik rejalashtirish: Xalqaro tajriba, uslublar va istiqbollar ilmiy maqolalar to‘plami, Toshkent-2019.

²¹ Muallif tomonidan Stata dasturi orqali tuzilgan.

Modelning ishonchliligi bir nechta testlar orqali tekshirilgan. Modelning ishonchliligi f test bilan tekshirilganda. F haqiqiy qiymat 1702,45 ekanligi aniqlandi. Ehtimollik qiymati 0 ga teng. Ekonometrik modellarning xossasiga asosan ehtimollik $P_{rob} < 0,05$ dan kichik bo'lishi f testni model ishonchliligi to'g'ri ekanligini anglatadi. Demak, model ishonchli hisoblanadi. Modelni parametrlar bo'yicha ham tekshirib ko'rildi. Buning uchun t testdan foydalanildi. Uning qiymati parametrlar bo'yicha mos ravishda -2,21 va 2,61 ga teng. Ehtimoliy qiymatlari esa mos ravishda yuqoridagi tahlil natijalarida aks ettirilgan. Unga ko'ra, ekonometrik modellarning xossasiga asosan ehtimollik $P_{rob} 0,05$ dan kichik bo'lishi t testni model ishonchliligi to'g'ri ekanligini anglatadi. Natijalar modelning parametrlari ishonchli ekanligini ko'rsatdi. Mazkur model f test, t testda tekshirildi.

Yuqorida tuzilgan ekonometrik modelga ko'ra, aholining bandlik darajasini 1 foizga o'sishi YaIM hajmining 14836,53 mlrd. so'mga, ishsizlik darajasining 1 foizga ortishi YaIM hajmining 3775,9 mlrd. so'mga pasayishiga, mehnat resurslarining bir ming kishiga ortishi YaIM hajmining 17,7 mlrd. so'mga oshishiga, aholining iqtisodiy faollik darajasining 1 foizga oshishi YaIM hajmining 10084,03 mlrd. so'mga oshishiga, hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining bir birlikka oshishi YaIM hajmining 53,9 mlrd. so'mga oshishiga ta'sir etadi.

Yuqoridagi ekonometrik tahlillar inklyuziv o'sishdagi natijaviy belgi sifatida mamlakat YaIM hajmiga omil belgilar: aholining bandlik darajasi, aholining ishsizlik darajasi, mehnat resurslari soni, aholining iqtisodiy faollik darajasi, hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining ta'siriga ko'proq e'tibor qaratilishini ko'rsatadi.

Inklyuziv rivojlanishning "o'sish va rivojlanish" indikatorlarini aks ettiruvchi jadvalda O'zbekistonda ushbu guruhga kiruvchi ko'rsatkichlar o'z ifodasini topgan.

6-jadval

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv rivojlanishning "o'sish va rivojlanish" indikatorlari²²

